
YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA SEMINAR BO'LIB O'TDI

Bugun "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Toshloq tumanidagi umumta'lim maktablari uchun ko'chat ekish, ko'chat qalamchalari tayyorlash va ularni ekish, parvarishlash, sug'orish, ko'chat ekishda e'tibor beriladigan jihatlar xususida seminar bo'lib o'tdi. Dastlab, tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 5-,19-,15-,42-,43-maktablaridagi ko'chat ekish tadbirlari maktab direktorlari hamda xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlariga namuna sifatida ko'rsatildi. Seminarda yuqoridagi maktablarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan ko'chatlar va mavsumiy gullarni parvarishlash holatlari o'rganildi. Seminar yakunida tumandagi 5-umumta'lim maktabida kuz mavsumida ekilishi kerak bo'lgan ko'chatlar bilan birga kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish yuzasidan maktablar mutasaddi rahbarlariga tegishli ko'rsatmalar berildi.

2022-11-10 20:36:45